

## PISA - THE IMPORTANCE OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM AND THE PARTICIPATION OF UZBEKISTAN IN IT

Mohinur Pardayeva Sobirjon qizi

She is a 2nd year student of "School Management" at the Faculty of Natural Sciences of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

User name: @ Moonlight7Education

Phone: +998906671012

**Announcement:** Organized by the Organization for Economic Co-operation and Development, the PISA International Assessment Program is a program to help determine the literacy and competency levels of students aged 15-16. It should be noted that PISA is recognized as the most prestigious and effective international research program in the world. In this article, you can learn more about the PISA program, as well as Uzbekistan's participation in the program.

**Keywords:** PISA, OIC, National Center, requirements for the test process, quality of education, participation of Uzbekistan, changes, tasks, President's address

## PISA - XALQARO BAHOLASH DASTURINING AHAMIYATI VA UNDA O'ZBEKISTONNING ISHTIROKI

Mohinur Pardayeva Sobirjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiy fanlar fakulteti

"Maktab menejmenti" 2-kurs talabasi.

User name: @Moonlight7Education

Telefon: +998906671012

**Annotatsiya:** Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tashkil qilingan - PISA xalqaro baholash dasturi 15-16 yoshdagi o'quvchi yoshlarning savodxonligini va ularning kompentensiyaviy darajasini aniqlashga yordam beradigan dastur hisoblanadi. Yana shu ta'kidlash joizki, PISA xalqaro tadqiqotlari dunyodagi eng nufuzli va samarali dastur sifatida tan olingan. Ushbu maqolada PISA dasturi haqida batafsil va eng muhim ma'lumotga ega bo'lishingiz ,shuningdek, bu dasturda O'zbekistonning ishtiroki to'g'risida ham bilib olishingiz mumkin.

**Kalit So'zlar:** PISA, IHIT, Milliy markaz, test jarayoniga qo'yiladigan talablar, ta'lim sifati, O'zbekistonning ishtiroki, o'zgarishlar, vazifalar, Prezident murojaati.

"Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'r'in egallashi avvalo ilm – fan va ta'lim – tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq..."

Shavkat Mirziyoyev

Bugun har qanday soha keskin rivojlanib borayotgan bir paytda zamon bilan ham nafas bo'lish, kerak bo'lsa undan bir qadam oldinda yurish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Shunga asosan yurtimiz O'zbekistonda ham bir qator ilg'or g'oya va takliflarning amalda qo'llanishi oldimizga qo'yilgan ustuvor vazifalardan biridir. Albatta, har qanday soha bo'lmasin uning tag zamirida ilm - fan yotishi hech kimga qorong'u emas. Shu bois ham yurtboshimizning aynan ta'lim sohasiga qaratayotgan alohida e'tiborlari taqsinga sazovor.

Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harkatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lif sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilayotganligini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Albatta bu o'z navbatida yutimiz ta'lif tizimining tubdan isloh qilinishiga va darslarda yangicha metodlarning qo'llanilishiga, shuningdek, chet el mamlakatlarining ta'lif tizimi va O'zbekiston ta'lif tizimining o'zaro taqqoslanishiga, umuman olganda bizning ta'lif sifatimiz xalqaro miqyosda qay darajada turganligini aniqlab olishimizga zamin yaratib beradi.

Shu sabali ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi "Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi" qoshida " Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi"

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining " Xalq ta'limi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qaroriga muvofiq 2018-yil 8-dekabrda tashkil etildi va bu borada qator ishlar ushbu markaz zimmasiga vazifa qilib yuklatildi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu Milliy markaz direktori – Xalqaro tashkilotlarning milliy loyiha menejeri hisoblanadi va xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etishi belgilab qo'yilgan.

Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi "Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi" va "Xalqaro hamkorlik va taqqiyot tashkiloti "o'rtasida o'quvchilarning bilim darajasini baholash uchun xalqaro dasturlardan biri (Agreement for participation programme for international student assessment) - PISA 2021 da ishtirok etish haqida kelishib olindi.

Demak, PISA (Programme for International Student Assessment) – xalqaro dasturiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu dastur asosan 15-16 yoshli o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda aynan shu yoshdagi o'quvchilarning o'qib tushunish, matematikani bilish va tabiiy fanlar bo'yicha qay darajada bilimga ekanligini ko'rsatib beruvchi dasturdir. Shuningdek, dasturda o'quvchilarning nafaqat nazariy savodxonligi, balki, olingan bilimlarni amaliyatda qo'llay olish layoqati ham sinovdan o'tkaziladi. Ularning tanqidiy fikrlashlari va mustaqil dunyoqarashlarni bilib olishga yordam beradi.

PISA xalqaro dasturining aynan 15-16 yoshli o'quvchilardan olinishiga asosiy sabab shundaki, bu yoshdagi o'quvchilar yangi hayot ostonasiga endi qadam qo'yayotgan, ya'ni o'z mustaqil fikriga ega va bemalol uni bayon eta oladigan, kelajagini qurish uchun ma'lum bir yo'nalishni tanlashi lozim bo'lgan o'quvchilardir. Shuning uchun ham davlatning ta'lif sifatiga baho berishda shu yoshdagi o'quvchilar tanlangan va bu orqali ularga shu yoshga qadar berilgan bilmalar samarasini tekshiruvdan o'tkazilgan.

Yana shuni ham aytib o'tish joizki, ko'pgina Iqtisodiy hamkorlik va tarqqiyot tashkiloti (IHTT) ga a'zo mamlakatlarda majburiy ta'limning oxirgi yoshi aynan shu yosh kesimiga to'g'ri kelar ekan. Bu ham o'z o'rniда PISA dasturining yosh tanlovida muhim omil bo'lgan desak xato bo'lmaydi.

PISA dasturi 2000-yildan buyon har 3 yilda hozirgi kunga qadar o'kazib kelinmoqda, ya'ni PISA ning o'tkazilish muddati har 3 yilni tashkil etadi. Tadqiqotning 3 yilda o'tkazilishining sababi – har bir mamlakatning siyosiy qarorlari va ularning ta'sir doirasini hisobga olgan tahlil va ma'lumotlarni qamrab olgan aniq axborotni o'z vaqtida berishga imkoniyat yaratishdir.

Iqtisodiy hamkorlik va tarqqiyot tashkiloti (OECD– Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan tashkil qilingan ushbu xalqaro tadqiqot umumiyligi o'rta ta'lif tizimiga oid dunyo bo'yicha eng nufuzli dastur hisoblanadi. PISA ma'lum bir o'quv dasturini qamrab olmagan, ya'ni uning aynan belgilab qo'yib e'tirof etadigan o'quv dasturi yo'q.

Shu bois ham u tasodifiy tanlangan o'quvchilar guruhidan olinadi va tadqiqot davomida olingan shaxsiy ma'lumotlar sir tutiladi. Tadqiqot hisobotlarida alohida qatnashchilar (o'quvchilar va ta'lif muassasalari) ga tegishli ma'lumotlar chop etilmaydi.

**Test jarayonini o'tkazish uchun tayyorgarlik jarayonida quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish lozim:**

- Test va so'rovnomalar o'tkazish sanasini aniqlab olish;
- Tadqiqotda qatnashishi ko'zda tutilgan ta'lif muassasasining o'quvchilari ro'yhatini tuzib olish;

- Foydalanimadigan komputerlarni tekshiruvdan o'tkazish va ularni "Kompyuter tekshiruvi natijalari" shaklini tayyorlash;
- Test jarayonini nazorat qilish.

***Test jarayonini o'tkazishga quyidagi talablar qo'yiladi:***

- Koordinatorlarni test jarayonini o'tkazish bo'yicha materiallar bilan tanishtirish va test jarayoni o'tkazishga tayyorlash;
- Test materiallarini olish, tekshirish va ularning konfidensialligini ta'minlash;
- O'qituvchilar, o'quvchilar va shuningdek ularning ota-onalarini ham test o'tkazilishidan ogohlantirish;
- Test uchun tanlab olingan o'quvchilar ro'yxatini ko'zdan kechirish va tuzatishlar kiritish;
- Ma'muriyat uchun so'rovnoma to'ldirishni nazorat qiluvchi va ma'lumotlarni kirituvchi shaxsga "Ta'lim muassasasi haqida ma'lumot" va "Ma'muriyat uchun so'rovnomanini to'ldirishga tayyorgarlik" shaklini yuborish;
- Test jarayonini o'tkazish kodlari bilan tanishish;
- USB-tashuvchilar va "O'quvchi haqida ma'lumot" shaklini tayyorlash;
- Test materiallarini saqlash va konfidensialligini ta'minlash;
- Test jarayonini o'tkazish rejasini tayyorlash;
- Test jarayonini tashkil etish vaqtida barcha bosqichlarda to'liq qatnasha oladigan qo'shimcha xodimlarning ishini belgilab olish;
- Test jarayonini o'tkazish uchun zarur bo'ladigan zaruriy materiallarni tayyor holatga keltirish;
- Test o'tkazuvchini test jarayoni va so'rovnoma o'tkazish tartibi hamda o'quvchilarning so'rovnoma izohlari bilan tanishtirish.

***Test jarayonini o'tkazish quyidagicha:***

- Bino va materiallarni tayyorlanadi;
- Test jarayonini o'tkazishning muhim jihatlarini ko'rib chiqiladi;
- Jarayonni o'tkaziladi;
- Qo'shimcha test jarayonini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilinadi (zarur holatda);

***Test jarayonini tugatish tartibi:***

- Test materiallari yig'ib olinadi;
- Qo'shimcha test o'tkaziladi (zarur hollarda);
- Ta'lim muassasasi papkasi va konverti tayyorlanadi;
- Tadqiqot materiallari jo'natishga tayyorlanadi;
- Tadqiqotning barcha materiallarini hududiy coordinator va Milliy markaz menejeriga yuboriladi.

Ko'rib turganingizdek, ushbu xalqaro tadqiqotni tashkil etish ham o'ziga yarasha qiyinchiliklarni va yuqori mas'uliyatni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirot etishi uchun esa O'zbekiston umumta'lim maktablari bitiruvchilari ta'lim olishni davom ettirish uchun qay darajada tayyorligini aniqlash, takomillashtirilishi lozim bo'lgan umumiyl o'rta ta'lim yo'nalishlarini belgilab olish, mamlakat o'quvchilarining bilim darajasidagi yutuqlari yoki kamchiliklarini bilib olish va shu bilan bir qatorda boshqa mamlakatlar ta'lim tizimidagi omillar juda muhim ahamiyatga egadir.

Muhtaram Prezidentimiz joriy yil Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ham mazkur tadqiqotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, o'qiyuvchilarning malakasini oshirish hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha qator topshiriqlar belgilangan.

Albatta bu borada ma'lum bir ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, yana bir narsani ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston ilk bor ishtirot etishi kutilayotgan ushbu dasturning o'tkazilish muddatiga o'zgartirish kiritildi va bu haqda "Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi" matbuot xizmati xabar berdi.

2021-yilning aprel-may oylarida o'tkazilishi lozim bo'lgan xalqaro tadqiqot butun dunyoga xavf solib turgan koronavirusning qayta avj olayotganligi bois vaqtincha to'xtatildi. Ma'lum bo'lishiga qaraganda 2021-yil

aprel-maydag'i test jarayonlari 2022-yil aprel-mayda o'tkaziladigan bo'ldi, ya'ni xalqaro dastur 1 yilga kechiktirildi.

Shuningdek, tadqiqotning 3 yillik davriyigini inobatga olgan holda, 2024-yilga mo'ljallangan jarayonlar ham o'z navbatida 2025-yilga ko'chirildi.

PISA (The Programme for International Student Assessment) tadqiqoti haqida qo'shimcha ma'lumotlarni O'zbekistonda mazkur tadqiqotni o'tkazishga mas'ul bo'lgan Ta'lim siafatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining rasmiy veb-sayti ([markaz.tdi.uz](http://markaz.tdi.uz)) va IHTT ning ([www.oecd.org/pisa](http://www.oecd.org/pisa)) saytidan olishingiz mumkin.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, PISA dasturi nafaqat ta'lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarni, balki aholi o'rtasida kompetensiyaviy shakllanganlik darajasini ham aniqlab olishga juda qulay imkoniyat yaratadi. Yurtimizdagi ta'limning global raqobatbardosh bo'lishiga ham turtki bo'la oladi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va ziyolilarga murojaatida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ta'lim sifati muhim omil ekanligini ta'kidlaganliklari va shu bois ham xalqaro tadqiqotlarda qatnashishga munosib tayyorgarlik ko'rish lozimligini aytib o'tishlari ham ushbu dasturdan olinadigan natijalarimiz yuqori bo'lishi kerakligiga ishora qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "PISA" dasturida 2021-yil kamida 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka, 2030-yilga kelib esa 30ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritilishi lozimligi yurtboshimiz tomonidan belgilab qo'yilgan.

Albatta, ishonamizki bizning ta'lim sifatimiz ham ushbu xalqaro darstur reytingida munosib o'rin egallay oladi.

#### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi, O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, "QO'LLANMA" / Toshkent – 2019.
2. <http://ma'rifat.uz>
3. <http://xs.uz>
4. <http://www.tdi.uz>
5. <http://old.uza.uz>